

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylarning iqtidorli bitiruvchilarini “yurisprudensiya” yo‘nalishi mavjud oliy ta’lim tashkilotlariga suhbat asosida test sinovlarisiz o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida qarori”ga muvofiq “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha savollar bazasi

Akademik litseylar dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo‘yicha bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasi

Savollar

1. Huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalarini tahlil qiling.
2. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
3. Xalqaro munosabatlar qanday prinsiplar asosida quriladi?
4. “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan fuqarolikni olishning qanday asoslari mavjud?
5. Ma’muriy huquq manbalarining iyerarxik ketma-ketligi qanday?
6. Emansipatsiya tushunchasiga ta’rif bering.
7. Davlat tuzilish shakli bo‘lgan konfederatsiyaning qanday belgilarini bilasiz?
8. Huquqshunoslik fanida “davlat” va “jamiyat” tushunchalariga izoh bering?
9. Huquq kundalik hayotda iste’molchilarni qanday himoya qiladi?
10. Davlatning asosiy belgilarini aytib bering.
11. Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va huquqning vujudga kelishi hamda rivojlanishi xususiyatlarini tavsiflang.
12. Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, vazifalari va amaliy ahamiyatini tushuntiring.
13. Davlat va huquq tarixining yuridik fanlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini aniqlashtiring.
14. Xammurapi qonunlariga ko‘ra qarz shartnomasini tushuntirib bering.
15. “Avesto”da nikoh, oila va ijtimoiy tartib masalalari qanday ifodalangan?
16. Amir Temur davlati markaziy boshqaruv tizimining asosiy organlarini bayon qiling.
17. Qadimgi Sharq mamlakatlarining huquq manbalarida mulkka qarshi jinoyatlar uchun qanday jazolar belgilangan edi?
18. Antik dunyoda huquqning rivojlanishini tahlil qiling.
19. Rim huquqida imperator hujjatlari (konstitutsiyalari) haqida tushunchalar bering.

20. Qadimgi Afinada Tesey, Solon va Klisfen islohotlarining davlat shakllanishidagi rolini tushuntiring
21. Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari haqida aytib bering.
22. “Avesto”da jinoyat masalasi haqida nimalar bayon qilingan?
23. Delikt majburiyatlar nima va uning qanday turlari bor?
24. 1701-yilgi “Taxt vorisligi haqidagi akt”ning mazmuni va ahamiyatini bayon qiling.
25. Fransiyaning 1791-yilgi birinchi Konstitutsiyasi haqida gapirib bering.
26. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
27. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimidagi so‘nggi islohotlardan nimalarni bilasiz?
28. Davlat suvereniteti deganda nimani tushunasiz va u Konstitutsiyada qanday mustahkamlangan?
29. Konstitutsiyada belgilangan “Xalq hokimiyatchiligi”ga oid normaning mazmunini qanday ifodalash mumkin?
30. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipining konstitutsiyaviy asoslarini tushuntiring.
31. Konstitutsiyaviy burch tushunchasi nimani anglatadi va uning fuqarolar tomonidan bajarilishi qanday huquqiy ahamiyat kasb etadi?
32. Odatda konstitutsiyalarda qanday turdagi burchlar belgilanadi?
33. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik deganda nima tushuniladi?
34. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday asosiy ekologik huquqlar mustahkamlangan?
35. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining maqsadlari haqida aytib bering.
36. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga yo‘l qo‘yiladimi?
37. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday shaxsiy huquq va erkinliklar mustahkamlab qo‘yilgan?
38. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Xabeas korpus” aktiga oid qanday norma belgilangan?
39. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday ko‘rinishda ishtirok etishlari mumkin?
40. Siyosiy partiyaning faoliyatini to‘xtatib turish qanday tartibda amalga oshiriladi?
41. Davlat tomonidan mulk huquqi qanday muhofaza qilinadi?
42. Konstitutsiyaga muvofiq shaxs buzilgan huquq va erkinliklarini qanday tiklashi mumkin?

43. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi kafolatlari nimalardan iborat?
44. Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha qanday milliy institutlarni bilasiz?
45. Konstitutsiyada belgilangan bolalar mehnatiga oid normalarning mazmuni nimadan iborat?
46. "Miranda qoidasi" tushunchasi va mazmun-mohiyati haqida gapirib bering. O'zbekiston Konstitutsiyasida unga oid qanday normalar mavjud?
47. Mahalliy davlat hokimiyati organlari deganda nima tushuniladi?
48. Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqi fuqarolar uchun qanday ahamiyatga ega?
49. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati nimadan iborat?
50. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli", deb yozilgan normani qanday tushunasiz?
51. Konstitutsiyada belgilangan shaxsning erkin harakatlanish huquqini tushuntirib bering.
52. Amaldagi Konstitutsiyada belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi", degan normaning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
53. Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud?
54. Hokimiyatlar bo'linish prinsipining mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering.
55. Shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqining mazmuni yoritib bering?
56. Referendumda ishtirok etish huquqi deganda nimani tushunasiz?
57. O'zbekiston Respublikasi oliy vakillik organi haqida nimalarni bilasiz?
58. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering?
59. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqaradi?
60. Qanday holatlarda Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?
61. Qonunni qabul qilish jarayonini yoritib bering?

62. 01.02.2024 yilda O'RQ-901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun mazmuni haqida ma'lumotga egamisiz?

63. Oila sudlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu haqida nimalarni bilasiz?

64. Parlament nazorati tushunchasi va uni amalga oshiruvchi subyektlarni tushuntiring.

65. Konstitutsionalizm tushunchasi va uning mohiyatini izohlang.

66. Hukumat tizimida so'nggi yillarda qanday o'zgarishlar amalga oshirildi?

67. Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi ehtiyoj bormidi? Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga qanday yangi normalar kiritildi?

68. Oliy Majlis tomonidan parlament nazoratini amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?

69. Qaysi xatti-harakatlar O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo'lish deb baholanadi?

70. O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tashabbusi va referendum tayinlash huquqini tushuntiring.

71. O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati subyektlari va obyektini yoriting.

72. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini yoriting.

73. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga nisbatan ishonchsizlik votumi berish qanday tartibda amalga oshiriladi?

74. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qanday vakolatlari mavjud?

75. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qanday normalar belgilangan?

76. Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan hamkorligini yoritib bering.

77. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi qanday?

78. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqomini yoriting.

79. Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi haqida nimalarni bilasiz?

80. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan dunyoviy davlat deganda nimani tushunasiz?

81. "Parlament nazorati to'g'risidagi qonun"ga ko'ra, parlament nazorati subyektlarini tushuntirib bering.

82. "Parlament nazorati to'g'risidagi qonun"ga ko'ra, Parlament nazorati obyektini tushuntirib bering.

83. Prokuror nazorati hujjati sifatida ogohlantiruvni tushuntirib bering.
84. Prokuror nazorati hujjati sifatida taqdimnomani tushuntirib bering.
85. Prokuror nazorati hujjati sifatida protestni tushuntirib bering.
86. Prokuror nazorati hujjati sifatida qarorni tushuntirib bering.
87. Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplarini tushuntirib bering.
88. Oila to'g'risidagi qonunchilik bilan bevosita tartibga solinmagan oilaviy munosabatlarga nisbatan huquqni qo'llash amaliyoti qanday mexanizmlarga tayanadi?
89. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari mutlaq xususiyatga egami yoki ularni cheklashning qonuniy sabablari mavjudmi?
90. Oila munosabatlaridan kelib chiqadigan talablarga nisbatan nima sababdan da'vo muddati joriy etilmaydi?
91. Qonunchilikda aniq normalar mavjud bo'lmagan taqdirda mahalliy urf-odat va an'analardan foydalanish qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?
92. Xalqaro huquq normalari va O'zbekiston oila qonunchiligi o'rtasida farq yuzaga kelganda qanday huquqiy yechim qo'llaniladi?
93. Nikohning faqat davlat organlarida qayd etilishi qanday huquqiy mantiqqa asoslanadi va diniy nikohning yuridik holati qanday ifodalanadi?
94. Nikoh tuzish muddati necha kunni tashkil etadi va bu muddatni qisqartirish yoxud uzaytirishning sabablari nimalarda namoyon bo'ladi?
95. Nikoh yoshining huquqiy tabiati va ushbu yosh senzini qisqartirish imkoniyatlari qanday organlar tomonidan nazorat qilinadi?
96. Qonunchilikda ko'zda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qaysilar va ularning ijtimoiy oqibatlari qanday tushuntiriladi?
97. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning huquqiy maqsadi hamda ushbu majburiyatdan istisno qilingan holatlar qanday tasniflanadi?
98. Chet el oila huquqi normalarini amaliyotga tatbiq etishda sud idoralari va FHDYo organlari qanday yo'l tutadilar?
99. Tug'ilish, nikoh va o'lim kabi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish nega qat'iy ravishda bitta nusxada va gerbli guvohnomalar asosida amalga oshiriladi?
100. Jins o'zgartirilishi natijasida fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish kiritishning eng muhim yuridik asosi nimadan iborat?

Yuridik kasbni tanlashda motivatsiyasi aniqlash (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

Savollar

1. Mutaxassis uchun huquqiy ko'nikmalar qanchalik muhim? Shaxslararo munosabatlar deyilganda kimlar o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi?
2. "Soft skills" va "Hard skills" o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
3. "Soft skills" tarkibiga qanday malaka va ko'nikmalar kiradi?
4. Huquqshunoslar uchun "Soft skills" qay darajada muhim?
5. Maqsad bilan orzuning farqini misollar bilan tushuntiring.
6. SWOT va PEST tahlillari bir-biridan qanday farqlanadi?
7. 100 foiz qoidasi" maqsadga erishishga qanday yordam beradi?
8. "Uch Garvard savoli" metodidan qachon foydalanish maqsadga muvofiq?
9. Vaqtni unumli boshqarish jarayoni qanday qismlardan tashkil topgan?
10. Oraliq vaqtdan qanday unumli foydalanish mumkin?
11. Majburiy samaradorlik qonuni nimani anglatadi?
12. Vaqtni boshqarish ko'nikmasining afzalligi nimada?
13. Tashabbuskor insonga qanday belgilar xos?
14. Huquqshunosning professional faoliyatida tashabbuskorlik qanchalik muhim?
15. Kreativlik nima uchun kerak?
16. Kreativlik ko'nikmasini rivojlantirishning uch asosiy qoidasini izohlang.
17. Shaxsning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
18. Huquqshunosning kreativligi nimalarda namoyon bo'ladi?
19. To'g'ri rezyume tuzish talablarini tushuntiring.
20. Rezyume tuzilmasi qanday ko'rinishda bo'ladi?
21. Taqdimotga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?
22. Slaydda matn qancha bo'lgani ma'qul?
23. Prezentsiyalar nima uchun kerak?
24. Prezentsiya uslubi deganda nima nazarda tutiladi?
25. Prezentsiya uchun e'tiborni tortadigan sarlavha qanday tanlanadi?
26. Misollar bilan tushuntiring.
27. Taqdimot jarayonida eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarni sanab bering.
28. Omma qarshisida nutq so'zlashga qanday tayyorlanish kerak?
29. Chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlashning uch uslubini tavsiflab bering.
30. Huquqshunos nutqi tinglovchining diqqatini qanday tortishi kerak?
31. Auditoriya diqqatini jalb qilish uchun qanday usullardan foydalangan ma'qul?

32. Nutq ta'sirchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar nimalardan iborat?
33. Haqiqiy lider qanday bo'lishi kerak?
34. Lider bo'lish uchun qanday sifat va ko'nikmalar zarur deb hisoblaysiz?
35. Liderlik qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin?
36. Mas'uliyat qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
37. Jamoa a'zolarida mehnatga mas'uliyatli munosabatning shakllanganligini ko'rsatuvchi belgilarni sanab bering.
38. Huquqshunos faoliyatida mas'uliyat hissi nima uchun muhim?
39. Kasbga sadoqat va halollik nima uchun muhim fazilatlar hisoblanadi?
40. Imij, brend va reputatsiya o'rtasidagi farqlarni izohlang.
41. Reputatsiyaning asosiy turlarini misollar bilan tushuntiring.
42. To'g'ri qaror qabul qilishda "10/10/10 qoidasi" qanday ahamiyatga ega?
43. To'g'ri qaror qabul qilishning "Niqob" metodini misollar bilan tushuntiring.
44. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning uch fazasi nimani anglatadi?
45. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi qanday elementlardan tashkil topgan?
46. Kommunikativ ko'nikmalar nima uchun muhim?
47. Empatiya huquqshunos uchun qay darajada kerak? Fikringizni misollar bilan batafsil izohlang.
48. Nima uchun bizga netiket qoidalari kerak?
49. Virtual etika tamoyillariga rioya qilishning ahamiyati nimada?
50. Huquqshunos uchun nizolarni hal qila olish ko'nikmasi qanchalik muhim? Misollar bilan tushuntiring.

Nutq madaniyatining shakllanganligi, o'z fikrini ravon ifoda etishi va tanqidiy fikrlash salohiyatiga egaligi

1. Til – ijtimoiy hodisa. Tilning jamiyatdagi funksiyasini tushuntiring.
2. Til va nutq. Ular o'rtasidagi farq nimadan iborat?
3. Nutq og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega bo'ladi. Biroq nutqning bu ikki ko'rinishi bir-biridan ba'zi jihatlari bilan farqlanadi. Og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tushuntiring.
4. O'zbek tilining rivojlanishi nimalarga bog'liqligini tushuntiring.
5. O'zbek tilidagi funksional uslublar haqida ma'lumot bering.
6. O'zaro farqini tushuntiring. Rasmiy uslub haqida ma'lumot bering va qo'llanish sohasini tushuntiring.

7. Rasmiy uslubning bosh belgilarini tushuntiring.
8. Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi? Ba'zilarini tushuntiring.
9. Hujjat matni aniq, ixcham, lo'nda, mazmuniy to'liq kabi talablarga javob berishi lozim. Bu belgilari qaysi uslubga xos?
10. Hujjat matnlarida qaysi tinish belgilari faol qo'llanadi va qanday maqsadda? Qanday tinish belgilaridan foydalanilmaydi?
11. Matn va uning turlari haqida ma'lumot bering.
12. Guvohnoma qanday hujjat? Ta'rif bering.
13. Yo'riqnoma qanday hujjat?
14. Lavoziy yo'riqnomasi qanday hujjat?
15. Buyruq qanday hujjat? Uning qanday asosiy turlari bor?
16. Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
17. "Davlat tili haqida"gi Qonunning qaysi moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan?
18. Tashkiliy hujjatlar deb nimaga aytiladi? Ular nimalarni belgilab beradi?
19. Tashkiliy hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi?
20. Tarjimayi hol qanday hujjat? Tarjimayi hol hujjatiga ta'rif bering, tarkibiy qismlarini sanang.
21. Bildirishnoma qanday hujjat? Bildirishnoma hujjatiga ta'rif bering, tarkibiy qismlarini sanang.
22. Qanday ish yuritish qog'ozi xizmat yozishmalari deyiladi? Xizmat xatlariga qanday yozishma turlari kiradi?
23. Xizmat yozishmalarida nimalar aks etadi? Da'vo xati qanday hujjat?
24. Majlis bayonnomasi qanday hujjat? Bayonnomada nimalar aks etadi?
25. Hisobot qanday hujjat?
26. Amalga oshirilgan ishlar hisobotining maqsadi nima va ularda nimalarni yozish kerak?
27. Dalolatnoma nima?
28. Tavsifnoma nima? Tavsifnomaning qanday zaruriy qismlari bor?
29. Hujjatchilik tarixi haqida ma'lumot bering.
30. Ish yuritish hujjatlarining qanday turlarini bilasiz?
31. Hujjatlardagi eng muhim zaruriy qismlar va ularni rasmiylashtirish haqida nimalarni bilasiz?
32. Rasmiy uslubning qanday asosiy belgilari bor? Sanang, izohlang.
33. Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
34. Murojaat xatlari va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
35. Ariza va shikoyat xatlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

36. Da'vo, so'rov va iltimos xatlari haqida ma'lumot bering.
37. Javob xatini talab qilmaydigan xatlarga nimalar kiradi?
38. Axborot va kafolat xatlarining farqli tomonlari nimada?
39. Rasmiy va shaxsiy xatlarning turlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
40. Bildirishnoma va uning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
41. Ishonchnoma va uning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
42. Tilxat qanday hujjat? Tilxatning asosiy zaruriy qismlari haqida ma'lumot bering.
43. Hujjatlar matnida til birliklarini qo'llashga doir qanday o'ziga xosliklar bor?
44. Rasmiy va shaxsiy xatlarning leksik-sintaktik qurilishi haqida aytib bering.
45. Mehnat daftarchasi deganda nimani tushunasiz?
46. Shaxsiy va rasmiy xatlarning grammatik me'yorlarini tushuntiring.
47. Rasmiy uslubning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini tushuntiring.
48. Farmoyish qanday hujjat? Farmon-chi?
49. Rasmiy uslubda qolip nima?
50. Tinish belgilarining uslubiy vazifasini tushuntiring.
51. "Yurist etikasi" tushunchasini izohlang.
52. "Yuristning nutq madaniyati" deganda nima tushuniladi?
53. Yurist etikasi va nutq madaniyatining o'zaro bog'liqligini asoslang.
54. Axloqiy xulq-atvor tushunchasi va uning mohiyati nima?
55. Axloqiy xulq-atvorning asosiy belgilarini tushuntiring, axloqiy xulq-atvorga misollar keltiring.
56. Axloqiy xulq va qonunning o'zaro aloqadorligi haqida nima deya olasiz?
57. Huquqiy davlat va axloqiy jamiyat haqida tushuntirish bering.
58. Qonunchilik va yuridik sohaning axloqiy asoslari haqida ma'lumot bering.
59. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining axloqiy mazmuni nimadan iborat?
60. Odil sudlovning mohiyati va uning axloqiy asoslari nimadan iborat?
61. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining axloqiy asoslari nima?
62. O'zbekiston qonunchiligidagi axloqiy asoslar haqida ma'lumot bering.
63. Kasbiy etika va odil sudlov haqida ma'lumot bering.
64. Yuristning kasbiy faoliyatidagi odob-axloq qoidalari haqida aytib bering.
65. Yurist etiketi deganda nima tushuniladi?

66. Xizmat jamoasida muloqot tushunchasi haqida ma'lumot bering.
67. Xizmat munosabatlari etiketi deganda nima tushuniladi?
68. Yuridik faoliyatda xizmat etiketi va xizmat jamoasida muloqotning ahamiyatini tushuntiring.
69. Nutq madaniyati va huquq tushunchalari va ularning o'zaro bog'liqligini tushuntiring.
70. Yurist faoliyatida nutq madaniyatining ahamiyati haqida ma'lumot bering.
71. il va nutqning kommunikativ xususiyatlari va vazifalari haqida aytib bering.
72. Yuridik nutqning yozma shakllari haqida ma'lumot bering.
73. Yozma yuridik nutqning turlari haqida aytib bering.
74. Yuridik hujjat tiliga qo'yiladigan talablar haqida aytib bering.
75. Yuridik nutq tushunchasi va uning og'zaki shaklini tushuntiring.
76. Og'zaki yuridik nutqning turlari haqida ma'lumot bering.
77. Og'zaki yuridik nutqqa qo'yiladigan talablarni tushuntiring.
78. Yuridik termin tushunchasi nima?
79. Yuridik terminlar qanday tasniflanadi?
80. Yuristning so'zlashuv etiketi tushunchasi haqida ma'lumot bering.
81. Yurist nutqiga qo'yiladigan talablar haqida gapirib bering.
82. Yuristning fuqarolar bilan muloqotda, sud jarayonida, hamkasblar bilan munosabatdagi nutq etiketi haqida ma'lumot bering.
83. Yurist so'zlashuv etiketida yo'l qo'yilmaydigan holatlar va yurist so'zlashuv etiketining kasbiy ahamiyati haqida ma'lumot bering.
84. Asosiy etika qoidalarining xususiyatlari haqida aytib bering.
85. Imlo xatolari hujjatning yuridik ahamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
86. Nutq madaniyatini egallaganlik ishbilarmonlik obro'siga qanday ta'sir qiladi?
87. Ommaviy nutq va muzokaralarda qaysi orfoepik me'yorlarga rioya qilish ayniqsa muhim?
88. Grammatik xatolar matn mazmunini qanday o'zgartirib yoki buzib yuborishi mumkin?
89. Ishbilarmonlik nutqida nutqiy shtamp va klişelardan qanday qochish mumkin?
90. Ish hujjatlaridagi uslubiy xatolarni qanday aniqlash mumkin?

Umumiy dunyoqarashning shakllanganligi, muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va ijodkorlik qobiliyati

Savollar

1. Xalqaro huquqda “yumshoq” huquq normalarining huquqiy tabiatini tavsiflab bering.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilishi, tarkibi va maqsadlarini tushuntirib bering.
3. BMTning konvensiyaviy organlari faoliyatini tushuntirib bering.
4. Xalqaro huquq va milliy huquq nisbatiga oid monism va dualism konsepsiyalarining mazmunini tushuntiring.
5. O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida xalqaro shartnomalarning tutgan o'rni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarning o'zaro nisbatini tushuntiring.
6. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini tuzish va kuchga kirish tartibini tushuntirib bering.
7. Diplomatik imtiyozlar va immunitetlar institutini tushuntiring.
8. BMT Xalqaro sudi haqida gapirib bering.
9. Diplomatik va konsullik huquqi tushunchasi, manbalari va tamoyillarini yoritib.
10. Xalqaro huquqda “hudud” deganida nima tushuniladi va uning qanday turlarini bilasiz?
11. **Jus ad bellum** va **jus in bello** o'rtasida farq nimadan iborat?
12. Xalqaro huquq doktrinasiga muvofiq, “nizo” va “vaziyat” tushunchalari o'rtasidagi farq nimadan iborat?
13. Xalqaro ommaviy huquq subyektlarining xususiyatlari va turlari qanday?
14. Xalqaro huquq nazariyasiga ko'ra davlatlar xalqaro huquq subyekti sifatida qanday majburiyatlarga ega?
15. Xalqaro tashkilotning huquq va majburiyatlarining unga a'zo bo'lgan davlatlarning huquq va majburiyatlaridan farqi nimadan iborat?
16. Konsullik muassasasining maqomi xususida nimalarni bilasiz?
17. Konsullikning fuqarolarga va yuridik shaxslarga taalluqli funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
18. Xalqaro gumanitar huquq deganda nimani tushunasiz va uning manbalari nimalardan iborat?
19. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan asosiy prinsiplari qaysilar?

20. Xalqaro hukumatlararo tashkilotning huquq va majburiyatlari unga a'zo bo'lgan davlatlarning huquq va majburiyatlaridan qanday jihatlariga ko'ra farq qiladi?
21. Xalqaro huquq deganda nimani tushunasiz va uning eng muhim jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
22. Xalqaro huquqning eng muhim funksiyalari nimalardan iborat?
23. "Xalqaro huquq tizimi" deganda nimani tushunasiz va uning asosiy elementlari nimalardan iborat?
24. Xalqaro huquq milliy huquqiy tizimdan qanday jihatlariga ko'ra farq qiladi?
25. Xalqaro huquq normalarini qanday mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin?
26. "Xalqaro huquq manbalari" tushunchasi va tizimi haqida o'z fikrlaringizni bildiring.
27. Xalqaro huquqning asosiy manbalaridan hisoblangan xalqaro odat deganda nimani tushunasiz va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
28. "Xalqaro-huquqiy javobgarlik" deganda nimani tushunasiz va uning elementlari nimalarda namoyon bo'ladi?
29. Xalqaro shartnomalarni haqiqiy emas deb topishning asoslarini tushuntirib bering.
30. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish asoslari va vositalari haqida fikrlaringizni bildiring.
31. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipining mazmun mohiyatini yoritib bering.
32. Xalqaro huquqda tan olish va huquqiy vorislik masalalarini tushuntirib bering.
33. Xalqaro huquqda aholi tushunchasiga ta'rif bering va aholining huquqiy maqomi bo'yicha tasniflang.
34. Mehnatkash – migrantlarning maqomi haqida gapirib bering.
35. Xalqaro huquqda "ekstraditsiya" (jinoyatchilarni topshirish) deganda nima tushuniladi va davlat o'z fuqarosini boshqa davlatga topshirishi mumkinmi?
36. Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya usullarida belgilash tartibi va maqsadini yoritib bering.
37. Xalqaro shartnomalarning vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi haqida tushuntirib bering.
38. Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllarini bayon qiling.
39. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning asosiy manbalari sifatida "Inson huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro Billni yoritib bering.
40. BMT Xavfsizlik Kengashi haqida ma'lumot bering.

41. Nogironlar huquqlari qo'mitasi faoliyati va vakolatlarini yoritib.
42. Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlariga ta'rif bering.
43. Xalqaro ekologiya huquqi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi, predmeti va subyektini yoritib bering.
44. Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasiga ta'rif bering va xalqaro jinoyat turlarini sanab bering.
45. Xalqaro axborot huquqi tushunchasiga ta'rif bering va uning obyektlari haqida ma'lumot bering.
46. Xalqaro huquqda havo kengliklari deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlarini bilasiz?
47. Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va tamoyillari nimalarni o'z ichiga olgan?
48. Xalqaro tashkilotlarning o'ziga xos yuridik xususiyatlari va belgilarini tasniflab bering.
49. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining asosiy funksiyalarini yoritib bering.
50. Xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislik deganda nimani tushunasiz?
51. Inson huquqlari asoslari fanining maqsadi nimadan iborat?
52. "Inson huquqlari asoslari" o'quv fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi nimalardan iborat?
53. "Inson huquqlari asoslari" fanining obyekti va predmetini tushuntirib bering.
54. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi insonning huquq va erkinliklariga doir moddalar qanday mazmun va ahamiyatga ega?
55. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning huquq va erkinliklarini cheklash asoslari bo'yicha qanday norma belgilangan?
56. Inson huquqlari bo'yicha Xalqaro Billning tarkibiga qanday hujjatlar kiradi?
57. BMTning inson huquqlari sohasidagi asosiy shartnomalariga qanday hujjatlar kiritiladi hamda O'zbekiston ularning qaysilarida ishtirok etmoqda?
58. Inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hujjatlarga qaysilar kiradi?
59. Yevropa Kengashi doirasida umume'tirof etilgan inson huquqlari Yevropa tizimining asosiy manbalarini sanab bering.
60. 10. Umume'tirof etilgan inson huquqlari Amerika tizimi manbalari haqida ma'lumot bering.
61. Afrika davlatlari qabul qilgan Afrika xartiyasi haqida gapirib bering.

62. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi, uning shakllari hamda davlatning bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasidagi asosiy majburiyatlarini tushuntirib bering.
63. Inson huquqlarining “uch avlodi” haqida ma’lumot bering.
64. Inson huquqlari bo‘yicha kengash doirasida qo‘llaniladigan Universal davriy ko‘rib chiqish protsedurasi mohiyatini tushuntiring.
65. Inson huquqlari bo‘yicha kengash doirasida qo‘llaniladigan maxsus protsedurasining mohiyatini tushuntiring.
66. Inson huquqlari bo‘yicha kengash doirasida qo‘llaniladigan shikoyatlar protsedurasining mohiyatini tushuntiring.
67. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi qanday faoliyatni amalga oshiradi?
68. BMTning inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlari haqida nimalarni bilasiz?
69. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning fakultativ protokollari (bayonnoma) qanday masalalarga bag‘ishlangan?
70. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Qo‘mitasi haqida ma’lumot bering.
71. Inson huquqlarini himoya qilish va muhofaza qilishda muhim rol o‘ynovchi davlat organlari qaysi?
72. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo‘yicha qanday milliy institutlar mavjud?
73. Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazning vazifasi nimadan iborat?
74. Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz inson huquqlari masalalari bo‘yicha qaysi organlar bilan hamkorlik qiladi?
75. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari nimalardan iborat?
76. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) qanday saylanadi?
77. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) tomonidan murojaatlar qanday tartibda ko‘rib chiqiladi?
78. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olishga doir Milliy preventiv mexanizmga asoslangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning qanday vakolati mavjud?
79. Zo‘ravonlikdan jabrlangan bolaning huquqlari hamda unga himoya orderi berish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan? Ushbu huquqiy mexanizmning mazmunini tushuntirib bering.
80. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga shikoyat topshirishda qanday talablar bajarilgan bo‘lishi kerak?

81. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida ayollar huquqlarini himoya qilish borasida qanday choralar amalga oshirilgan?
82. YeXHT doirasida inson huquqlarini himoya qilish haqida gapirib bering.
83. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi o'z faoliyatini qaysi yo'nalishlarda amalga oshiradi?
84. BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biri hisoblangan YuNISEFning vazifalari nimalardan iborat?
85. BMTga a'zo-davlatlar inson huquqlari bo'yicha 2 xil ma'ruza taqdim etadilar. Universal davriy kuzatuv va shartnomaviy organlarga taqdim etiladigan milliy ma'ruzalarda qanday farqlar mavjud?
86. Zo'ravonlik tushunchasi va uning turlarini bir-biridan farqli jihatlarini tahlil qiling.
87. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
88. Mamlakatimizda ayollar huquqlari qaysi asosiy qonunlar bilan himoyalangani?
89. Ayollar huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro-huquqiy hujjatlar nomini keltiring.
90. Raqamli inson huquqlari deganda nima tushuniladi?
91. Ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar sirasiga asosan kimlar kiradi?
92. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan davlat tomonidan qanday kafolatlar bor?
93. Voyaga yetmaganlar va yosh bolalar ma'lumot olishida qanday cheklovlar mavjud?
94. Nogironlarga davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam nimalardan iborat?
95. "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning prinsiplarini sanab bering.
96. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilishga bo'lgan huquqining amalga oshirilishini ta'minlash masalalari qanday?
97. Internet tarmog'ida axborotdan foydalanish huquqi nimalarni o'z ichiga oladi?
98. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi subyektlarni sanab o'ting.
99. Migratsiya masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining vazifalari nimalardan iborat?

100. O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining murojaatlarini ko'rib chiqish yuzasidan o'zaro hamkorlik qilish tartibini tushuntirib bering.

101. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi va uning asosiy vazifalarini aytib bering. Aybsizlik prezumpsiyasi nima?

102. Odil sudlovni amalga oshirishda uning ahamiyati qanday?

103. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.

104. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlarini tushuntirib bering.

105. Odil sudlovni amalga oshirishda malakali yuridik yordam nima va uning ahamiyati qanday?

106. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash qanday yo'llar orqali amalga oshiriladi?

107. Sudyaning daxlsizligi haqida ma'lumot bering.

108. Sudyaning vakolatlari muddati va uni hisoblash tartibini tushuntiring.

109. Sud himoyasida bo'lish huquqi haqida nimalarni bilasiz?

110. Sudyani boshqa sudyalik lavozimiga o'tkazish tartibini tushuntirib bering.

111. Sudyalar intizomiy javobgarligining asoslarini aytib bering.

112. Sudyalar malaka hay'atlari faoliyati haqida ma'lumot bering.

113. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining vakolatlari haqida ma'lumot bering.

114. Konstitutsiyaviy sudga murojaatga qo'yiladigan talablarni aytib bering.

115. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatini aytib bering.

116. Jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishining alohida tartibini tushuntirib bering.

117. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ishni ko'rib chiqishning bevositaligi va sud majlisining uzluksizligi haqida ma'lumot bering.

118. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining turlari haqida ma'lumot bering.

119. Konstitutsiyaviy sud qarorining yuridik kuchini tushuntirib bering.

120. Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishni ko'rib chiqish muddatlari, ushbu muddatlarni hisoblash hamda muddatning tugashi masalalarini tushuntirib bering.

121. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkin?

122. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.

123. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining majlisi va uni o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
124. Birinchi marta tayinlanadigan sudyalarni tanlashning asosiy mezonlari nimalardan iborat ekanligini aytib bering.
125. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi a'zosining vakolatlari muddati va ularning daxlsizligini tushuntirib bering.
126. Advokatura va uning vazifalari haqida ma'lumot bering.
127. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
128. Advokatlar hay'ati haqida ma'lumot bering.
129. Yuridik maslahatxona haqida ma'lumot bering.
130. Advokatlik siri haqida nimalarni bilasiz?
131. Prokuror nazorat hujjati hisoblangan protest haqida ma'lumot bering.
132. Prokuror nazorat hujjati hisoblangan taqdimnoma haqida ma'lumot bering.
133. Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning ishtiroki haqida ma'lumot bering.
134. Ichki ishlar organlari tizimi haqida ma'lumot bering.
135. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
136. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qanday prinsiplardan iborat?
137. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari haqida ma'lumot bering.
138. Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tushuntirib bering.
139. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari haqida ma'lumot bering.
140. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tizimini yoritib bering.
141. Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) tomonidan davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish tartibini tushuntirib bering.
142. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining hisobdorligi haqida ma'lumot bering.
143. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi haqida ma'lumot bering.
144. Bojxona organlarining asosiy vazifalarini aytib bering.
145. Bojxona organlari tizimi haqida ma'lumot bering.
146. Bojxona organlarining majburiyatlarini aytib bering.
147. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) harbiy va maxsus unvonlarini sanab bering.

148. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatida konspiratsiya prinsipini yoritib bering.
149. Prokuror nazorati hujjatlarining “ogohlantiruv” turi haqida ma’lumot bering.
150. Prokuror nazorati hujjatlarining “qaror” turi haqida ma’lumot bering.